



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, III-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
III-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SUD BOSHQARUVCHILARI FAOLIYATINING IQTISODIY RAG‘BATLANTIRISH TIZIMI VA ULARNING SUBSIDIAR JAVOBGARLIGI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	12
Soliyev Damirjon Nurmatovich	
BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA MOLIYAVIY TRANZAKSIYALARNI NAZORAT QILISH TIZIMI (SMART-KONTRAKTLAR, MARKAZLASHMAGAN MA‘LUMOTLAR BAZASI VA AUDIT IZLARI).....	18
Olimova Mukhlisa Vohidjon qizi	
SANOAT SEKTORIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH: STRATEGIK AFZALLIKLAR VA TO‘SIQLAR TAHLILI.....	26
Xatamov Ochildi Qurbonovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ.....	32
PhD. Юлдашева С.Ш	
TREND MODELLARI YORDAMIDA MEHNAT RESURSLARI SONINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	38
Haydarova Dinora Atamurot qizi	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫКУПА И ПРОДАЖИ КВОТ НА ОРОСИТЕЛЬНУЮ ВОДУ.....	43
Гоженко Борис Владимирович	
MOLIYAVIY LEVERIJ SAMARASI VA QARZ MABLAG‘LARINI BOSHQARISHDA UNDA FOYDALANISH.....	50
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
XIZMATLAR SOHASIDA WEBMONEY TO‘LOV TIZIMINI KOMPYUTERDA O‘RNATISH VA SOZLASHNING IQTISODIYOTDAGI ROLI.....	55
Fazilat Esirgapovna Jomonqulova	
Nizomov Murod	
Qurbonboyeva Rayhon Bahronjon qizi	
MECHANISMS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF A HEALTHY LIFESTYLE.....	58
Shukhrat Mashrabboevich Mamadaliyev	
BANK SEKTORIDA OPERATSION SAMARADORLIK VA XAVFLARNI BOSHQARISHNI BAHOLASH.....	62
R.I.Rashidov	
A.N. Elmurodov	
A.A. Muhiddinov	



UDK: 336.71

BANK SEKTORIDA OPERATSION SAMARADORLIK VA XAVFLARNI BOSHQARISHNI BAHOLASH

R.I.Rashidov

QDTU "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası dotsenti

A.N. Elmurodov

Qarshi davlat texnika universiteti talabasi

A.A. Muhiddinov

Qarshi davlat texnika universiteti talabasi

ORCID: 0009-0009-9455-8606

Annotatsiya. Mazkur maqolada rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda raqamli transformatsiya, tarkibiy islohotlar va tijorat banklarining operatsion samaradorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tadqiq etiladi. Tahlil natijasida O'zbekistondagi davlat banklari tizimli ravishda xususiy banklardan pastroq samaradorlikka egaligi aniqlandi. Xususiy banklar raqamli kanallarni faolroq joriy etishi natijasida yuqori daromadlilik va risklarni samarali boshqarishga erishmoqda.

Kalit so'zlar: bank sektori, raqamli transformatsiya, bank samaradorligi, DEA, davlat banklari, xususiylashtirish, NPL, CAMEL, O'zbekiston, post-o'tish iqtisodiyoti.

Abstract. This article examines the relationship between digital transformation, structural reforms, and the operational efficiency of commercial banks in emerging economies. The analysis reveals that state-owned banks in Uzbekistan systematically demonstrate lower efficiency compared to private banks. Due to a more active deployment of digital channels, private banks achieve higher profitability and effective risk management.

Keywords: banking sector, digital transformation, bank efficiency, DEA, state-owned banks, privatization, NPL, CAMEL, Uzbekistan, post-transition economy.

Аннотация. В данной статье исследуется взаимосвязь между цифровой трансформацией, структурными реформами и операционной эффективностью коммерческих банков в развивающихся экономиках. В результате анализа выявлено, что государственные банки Узбекистана демонстрируют систематически более низкую эффективность по сравнению с частными банками. За счёт более активного внедрения цифровых каналов частные банки достигают более высокой доходности и эффективного управления рисками.

Ключевые слова: банковский сектор, цифровая трансформация, эффективность банков, DEA, государственные банки, приватизация, NPL, CAMEL, Узбекистан, постпереходная экономика.

KIRISH

Bank sektori har qanday bozor iqtisodiyotining asosiy tarmog'i bo'lib, jamg'armalarni investitsiyalarga aylantirishni, to'lov oqimlarini boshqarishni va kredit xavflarini taqsimlashni ta'minlaydi. O'zbekiston 2017-yildan buyon bank sektorini tubdan isloh qilmoqda: davlat valyuta nazoratini bekor qildi, davlat banklarini transformatsiya qilish majburiyati yuklatildi. Xususan, 2023-yil iyunda OTP Bank (Vengriya) Ipoteka-bankning 73,71 foizini sotib oldi — bu birinchi muvaffaqiyatli xususiylashtirish bitimi hisoblanadi. Davlat banklarining umumiy aktivlardagi ulushini 2026-yildagi 65 foizdan 2030-yilga qadar 55 foizga tushirish maqsadi belgilandi. 2026-yilda YeTTB Asakabank kapitalining 15 foiz ulushini olishni rejalashtirmoqda. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya va xususiylashtirishning o'zaro bog'liqligi, fikrimizcha, bank islohotlarining yakuniy samaradorligini belgilaydi. Mazkur maqolada muallif tomonidan raqamli transformatsiya mazmunida bank samaradorligini baholashning nazariy yondashuvlarini tizimlashtirish, davlat va xususiy banklarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari bo'yicha



nisbiy samaradorligini tavsiflash, bank sektorini isloh qilish uchun tavsiyalar shakllantirish kabi vazifalar belgilab olindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank samaradorligi nazariyasi bir-birini to'ldiruvchi bir nechta konseptual nazariyalarga asoslanadi. Birinchisi — Leybensteynning X-samaradorlik konsepsiyasi (1966): u firmaning haqiqiy natijalari va berilgan resurslar bilan maksimal darajada erishilishi mumkin bo'lgan natijalar o'rtasidagi farqni boshqaruvning inertligi, rag'batlantirishning zaifligi va raqobat bosimining yo'qligi sababli aniqlaydi. Ikkinchi nazariya — bu ishlab chiqarish birliklarining texnik samaradorligini qiyosiy baholashning noparametrik usuli bo'lgan ma'lumotlar qobig'i tahlilidir (Data Envelopment Analysis, DEA). Dastlab Charnes, Cooper va Rhodes (1978) tomonidan taklif etilgan DEA usuli ishlab chiqarish funksiyasining o'ziga xos funksional shaklini oldindan belgilamasdan turib, bank "samaradorligi"ni real natijaning (mahsulot hajmining) xuddi shu kirish resurslarida (resurs sarfida) erishish mumkin bo'lgan maksimal darajaga nisbati sifatida hisoblash imkonini beradi. Postsovet banklari kontekstida olib borilgan ko'plab tadqiqotlar (Fries & Taci, 2005; Bonin, Hasan & Wachtel, 2005) davlat banklari xususiy va xorijiy banklarga qaraganda tizimli ravishda kamroq samarali ekanligini, strategik xorijiy investorlar foydasiga amalga oshirilgan xususiyashtirish esa samaradorlikning eng yuqori o'sishini ta'minlashini ko'rsatdi.

Uchinchi nazariya — AQShning FDIC (Federal depozitlarni sug'urtalash korporatsiyasi) tomonidan 1979-yilda ishlab chiqilgan va banklarning prudensial tahlili bo'yicha xalqaro standartga aylangan CAMEL talablaridir (Capital adequacy — kapital yetarliligi, Asset quality — aktivlar sifati, Management — boshqaruv/menejment, Earnings — daromadlilik, Liquidity — likvidlilik). Biz tadqiqotimizda CAMEL talablari O'zbekiston bank tizimi bo'yicha mavjud ma'lumotlarni talqin qilish uchun tashkiliy sxema vazifasini bajaradi va tahlilni bank barqarorligi hamda samaradorligining tahliliy jihatdan farqlanuvchi, ammo o'zaro bog'liq beshta o'lchovi bo'yicha tizimlashtirishga imkon beradi. Bizning fikrimizcha, aynan CAMEL tizimining DEA metodologiyasi bilan integratsiyalashuvi to'liq tahlilni taqdim etadi: CAMEL normativ mo'ljalni ta'minlasa, DEA esa yuzaga kelishi mumkin bo'lgan samaradorlik chegarasiga nisbatan qiyosiy pozitsiyani ko'rsatadi.

Navbatdagi nazariya — raqamli moliyaviy innovatsiyalar iqtisodiyoti hamda ularning bank raqobati va samaradorligiga ta'siridir. Buchak, Matvos, Piskorski va Seru (2018) fintex-kreditorlar an'anaviy banklarga qaraganda raqobatbardosh bozordagi o'z o'rnini, eng avvalo, tavakkalchiliklarni boshqarishdagi tub ustunlik hisobiga emas, balki tartibga solish (regulyatorlik) afzalliklari va texnologik moslashuvchanlik evaziga qo'lga kiritishini ko'rsatib berishdi. Banna va Alam (2021) 2011–2021-yillar davomida 40 ta rivojlanayotgan mamlakatning 660 ta bankidan olingan tanlanma asosida fintex vositachiligidagi inklyuzivlik bank risklarini kamaytirishini aniqladilar: bunda defolt riski 7,85 foizga, leveraj (leverage) riski 9,23 foizga, portfel riski esa 7,64 foizga kamayadi. Ushbu natijalar O'zbekiston uchun bevosita amaliy ahamiyatga ega: xususiy banklarda raqamli kanallarning faol joriy etilishi, bizning fikrimizcha, nafaqat operatsion tejamkorlik manbasi, balki qamrovni kengaytirish va risklarni diversifikatsiya qilish orqali kredit portfeli sifatini yaxshilash mexanizmi bo'lib ham xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Belgilangan maqsadlarga erishish uchun mazkur tadqiqotning ilmiy-metodologik apparati sifatli institutsional tahlil hamda noparametrik iqtisodiy-matematik modellashtirishning zamonaviy usullarini tizimli ravishda uyg'unlashtirishga asoslanadi. Raqamlashtirish sharoitida O'zbekiston bank sektorining operatsion samaradorligi va risklar darajasini keng qamrovli hamda shu bilan birga aniq baholashni ta'minlash maqsadida uch bosqichli tadqiqot freymvorki shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

2024-yil dekabr holatiga davlat banklari umumiy bank aktivlarining 64,53 foizini — 576,2 trln so'mni — nazorat qilgan. Bank sektoridagi islohotlar 2017-yildan boshlab izchil faollashdi. Shu bilan birga, ayrim tarkibiy xususiyatlar saqlanib qolmoqda: davlat banklari korporativ kreditlash, ipoteka moliyalashtirish va davlat dasturlariga xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida muhim o'rin egallaydi. Bu esa bank sektorida raqobat muhitini yanada rivojlantirish va pul-kredit siyosati transmissiyasi samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi. 2017–2023-yillarda davlat dasturlari bilan faol ishlovchi uchta bank — Agrobank, Mikrokreditbank va Xalq banki — ekvivalent 5,8 mlrd AQSh dollari miqdorida rekapitalizatsiyaga ehtiyoj sezgan (Jahon banki FSAP, 2024). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida [1] bank tizimida



raqobat muhitini kuchaytirish, davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish va banklar faoliyatining bozor tamoyillariga mosligini oshirish vazifalari belgilangan. Shu bilan birga, YeTTB va Jahon banki baholashlarida ushbu yo'nalishdagi islohotlarni yanada izchil davom ettirish zarurligi qayd etilgan (Daryo, 2024).

XVF (2025) ma'lumotlariga ko'ra, bank tizimining umumiy kapital yetarliligi koeffitsienti (CAR) tartibga solish minimumidan (Bazel III: 8 foiz) yuqorida, ammo taqsimot sezilarli darajada geterogen [13]. Davlat banklari CARni asosan davriy davlat rekapitalizatsiyalari orqali ushlab turadi. Xususiy banklar, aksincha, kapitalni asosan bozor yo'li orqali jalb qiladi — taqsimlanmagan foydani ko'paytirish, subordinatli qarz chiqarish yoki strategik investorlarni jalb qilish orqali. Bu davlat kapitali va xususiy kapital tabiatidagi sifatiiy farqni yaratadi.

Aktivlar sifati O'zbekiston bank tizimida alohida e'tibor talab etadigan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda NPL ko'rsatkichi 5,2 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, ayrim davlat banklari bo'yicha rasmiy ko'rsatkichlar aktivlar sifatining real holatini to'liq aks ettirmasligi mumkin. Xususan, 2023-yilda OTP Bank tomonidan Ipoteka-bank sotib olinganidan so'ng, xalqaro standartlar asosida qayta baholash natijasida NPL darajasi 7,1 foizdan 18,7 foizgacha oshgani qayd etilgan, ya'ni farq 11,6 foiz punktini tashkil etgan (Jahon banki FSAP, 2024). Mualliflar fikricha, ushbu holat davlat banklarida muammoli kreditlar darajasini baholashda ehtiyotkor va xalqaro standartlarga mos yondashuvni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, "tasdiqlash oldidagi" va "tasdiqlashdan keyingi" NPL ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovut aktivlar sifatini baholash tizimini yanada takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

1-jadval

O'zbekiston bank sektori asosiy ko'rsatkichlari: davlat va xususiy banklar¹

Ko'rsatkich	Davlat banklari	Xususiy banklar	Maqsad
CAR / Adequacy	≥8% (rekapitalizatsiya)	≥12% (bozor kapitali)	≥8% (Basel III)
NPL (2021)	Xalq Bank 19.7%; NBU 4.5%; Asaka 4.8%	<3% o'rtacha	<5%
NPL (xususiylashtirishdan keyin)	Ipoteka-bank: 7.1%→18.7%	—	—
ROA	0.5–1.2%	1.5–2.5%	≥1%
ROE	6–10%	12–18%	≥10%
NIM	4–5%	5–7%	3–5%
CIR	65–75%	45–55%	<55%

1-jadvaldan davlat va xususiy banklar o'rtasidagi asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarida tizimli farq ko'rinib turibdi. Xarajatlar/daromadlar koeffitsienti (CIR) davlat banklarida 65–75 foizni tashkil etadi — xususiylardan 10–20 foiz punktga yuqori. Aktivlar rentabelligi (ROA) davlat banklarida 0,5–1,2 foiz, xususiy banklarda 1,5–2,5 foiz. Bunday farq tasodifiy emas: u biznes-modellar, rag'batlantirish tizimlari va operatsion madaniyatdagi tarkibiy farqlarni aks ettiradi.

Raqamli transformatsiya boshqaruv o'lchoviga tub o'zgarishlar kiritmoqda: ma'lumotlarga asoslangan kredit skoringning avtomatlashtirilishi subyektiv, jumladan, ma'muriy yoki institutsional omillar ta'sirida qabul qilinadigan kredit qarorlari uchun imkoniyatlarni cheklaydi. Chunonchi, O'zbekiston xususiy banklarida (TBC Bank, Hamkorbank) kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari hamda jismoniy shaxslarning algoritmik skoringi iste'mol segmentidagi kredit qarorlarining 60 foizdan 80 foizgacha bo'lgan qismini ta'minlamoqda. Mualliflar fikricha, algoritmik skoringning joriy etilishi nafaqat texnik innovatsiya, balki kredit qarorlarining shaffofligi va obyektivligini oshirish mexanizmi hamdir.

O'zbekiston banklarining daromadlilik ko'rsatkichlari 2017–2024-yillar davomida sezilarli darajada yaxshilandi, biroq davlat va xususiy banklar o'rtasidagi tafovut hamon saqlanib qolmoqda. Tarmoq bo'yicha o'rtacha ROA (aktivlar rentabelligi) 2017-yildagi 0,4 foizdan 2023-yilda 1,1 foizgacha, ROE (kapital rentabelligi) esa 4 foizdan 10 foizgacha o'sdi. Shunga qaramay, davlat banklari orasida raqamli kanallarni eng faol joriy etayotgan muassasalar yetakchilik qilmoqda: masalan, mobil bankingni hamda fintex-kompaniyalar bilan sheriklikni faol rivojlantirayotgan Xalq banki, balansi (aktivlar tarkibi) o'xshash, ammo raqamli kanallari yetarlicha rivojlanmagan banklarga qaraganda yuqoriroq daromadlilikni namoyish etmoqda.

McKinsey Global Banking Annual Review (2023) baholashlariga ko'ra, an'anaviy filiallar orqali xizmat ko'rsatishdan raqamli modelga o'tish bitta tranzaksiya qiymatini o'rtacha 5–10 barobargacha pasaytiradi [7]: mijozning filialga jismoniy tashrifi bankka taxminan 4 AQSh dollariga tushsa, mobil aloqa orqali o'zaro munosabat taxminan 0,10 dollarni tashkil etadi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan an'anaviy filiallar soni hamon yuqori bo'lgan O'zbekiston uchun davlat banklari ijtimoiy ahamiyatga ega hududiy xizmat ko'rsatish tarmog'ini

1 O'zR Markaziy banki (yillik hisobotlar 2022–2024); Jahon banki FSAP (dekabr 2024); XVF VSFS (2025); muallif baholashlari



saqlab kelmoqda, operatsiyalarni raqamli kanallarga o'tkazish yaqin 5 yillik istiqbolda CIR (xarajatlarning daromadga nisbati) ko'rsatkichini 10–15 foiz bandga kamaytirish potensialiga ega. Bizning fikrimizcha, ushbu "xarajatlarni kamaytirishning raqamli potentsiali" davlat banklarini xususiylashtirish jarayonida investorlar uchun asosiy argumentlardan biri bo'lib xizmat qiladi: raqamli transformatsiyaning to'g'ri tizimlashtirilgan dasturi hali bitim to'liq yakunlanmasdan turib bankning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi.

O'zbekiston bank tizimining likvidlik ko'rsatkichlari rasman me'yoriy doirada (maqbul chegaralarda) joylashgan. Biroq XVF tizimda yuqori darajadagi konsentratsiya mavjudligini ko'rsatmoqda: yirik davlat banklari tizim likvidligining mutlaq katta qismini ta'minlamoqda, bu esa ulardan birortasida muammo yuzaga kelgan taqdirda tizimli barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. XVFning uch yillik istiqboldagi tayanch va salbiy ssenariylar asosida o'tkazgan stress-testlari bir qator banklarning aktivlar sifati yomonlashishi ko'rinishidagi shoklarga nisbatan zaifligini aniqladi. Davlat banklari tarixan ustunlik qilib kelayotgan ayrim tarmoqlarda (qurilish, qishloq xo'jaligi) kreditlash konsentratsiyasining yuqori darajada ekanligi alohida e'tibor talab etadi [4].

Tizimli risklarni pasaytirish uchun, bizning fikrimizcha, kredit portfelini kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni rivojlantirish orqali diversifikatsiya qilish zarur — aynan shu yo'nalishda fintex-platformalar va raqamli skoring eng ilg'or texnik imkoniyatlarni taqdim etadi. Aynan shu bosqichda xususiylashtirish va raqamlashtirishning sinerjiyasi yaqqol namoyon bo'ladi: KO'T subyektlari uchun raqamli skoring tizimiga ega bo'lgan xususiylashtirilgan bank bir vaqtning o'zida portfelni diversifikatsiya qilish, risk konsentratsiyasini kamaytirish va sof foiz marjasini (NIM) yaxshilash imkoniga ega bo'ladi.

2023-yil iyun oyida Ipoteka-bankning xususiylashtirilishi O'zbekiston bank tizimini isloh qilish dasturi doirasidagi dastlabki yakunlangan yirik bitim bo'lib, u boy institutsional saboqlar manbasiga aylandi. Vengriyaning OTP Banki aksiyalarning 73,71 foizini sotib olib, mamlakatning kapitallashuv darajasi bo'yicha uchinchi o'rinda turadigan banki ustidan nazoratni qo'lga kiritdi. Aniqlangan eng muhim fakt shundan iboratki, nazorat o'tishi bilan o'z xalqaro standartlar asosida qayta baholash jarayonida muammoli kreditlar (NPL) darajasi rasman e'lon qilingan 7,1 foizdan 18,7 foizgacha ko'tarildi — farq 11,6 foiz bandni tashkil etdi (World Bank FSAP, 2024).

Ushbu holatni bir nechta nazariy yondashuvlar nuqtayi nazaridan izohlash mumkin. Birinchidan, davlat banklarida institutsional va ma'muriy omillar, shuningdek, shaffoflikka bo'lgan rag'batlarning nisbatan sustligi NPL ko'rsatkichlarini baholashda ehtiyotkor yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Bu holat Kornaning yumshoq budjet cheklovlari konsepsiyasi (Kornai, 1986) doirasida izohlanishi mumkin. Ikkinchidan, xususiylashtirish, xususan, xorijiy strategik investorning kirib kelishi aktivlar sifatini xalqaro standartlar asosida qayta baholash jarayonini faollashtiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Uchinchidan, bank islohotlari bilan bog'liq xarajatlar davlat tomonidan qo'shimcha kapitallashuv yoki xususiylashtirish jarayonida aktivlarni qayta baholash orqali turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Shu bois mulkchilik tuzilmasidagi o'zgarishlar bank aktivlarining real holatini aniqroq baholash va boshqaruv qarorlarini asoslash imkonini beradi.

Bank islohotlari dasturidagi navbatdagi muhim voqea sifatida 2026-yilda YeTTB (Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki) 15 foizlik ulush bilan Asakabank kapitaliga kirishi kutilmoqda. Bizning fikrimizcha, ushbu bitim xarakter jihatidan OTP Bank bilan bo'lgan kelishuvdan tubdan farq qiladi: bu yerda gap to'liq xususiylashtirish haqida emas, balki xalqaro taraqqiyot instituti bilan strategik sheriklik to'g'risida bormoqda. YeTTB, odatda, o'z ishtirokining sharti sifatida qarz oluvchining korporativ boshqaruvi, shaffofligi va kredit siyosatiga nisbatan qat'iy talablar qo'yadi. Bu mulkchilik tuzilmasini to'liq o'zgartirmasdan turib, bankni isloh qilishga yo'naltirilgan "shartli bosim" mexanizmini yaratadi.

Asakabank yalpi aktivlari bo'yicha O'zbekistonning ikkinchi eng yirik banki hisoblanadi va tarixan avtomobil sanoatiga ixtisoslashgan. Fikrimizcha, o'tish davrida kredit portfelini diversifikatsiya qilish, shu bilan birga, korporativ boshqaruv sifatini oshirish va jarayonlarni raqamlashtirish kabi masalalar kun tartibida ustuvorlik qiladi. Buning uchun isloh qilinayotgan davlat bankining klassik trilemmasini yechish talab etiladi: ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega kredit dasturlari qo'llab-quvvatlash bilan bir vaqtda NPL darajasini pasaytirishga intilish va investorga bozor rentabelligini namoyish etish zarurati.

Xalqaro tajriba, xususan, Qozog'iston (BTA Bank islohoti, Kaspi Bank transformatsiyasi) va Gruziya (2000-yillarda IFC — Xalqaro moliya korporatsiyasi ishtirokida davlat banklarining isloh qilinishi) tajribasi shuni ko'rsatadiki, eng muvaffaqiyatli bank islohotlari uchta elementni — mulkdorning o'zgarishi, prudensial tartibga solishning kuchaytirilishi va texnologik transformatsiyani o'zida mujassam etadi hamda bular ketma-ket qadamlar sifatida emas, balki yagona yaxlit majmua (paket) sifatida amalga oshiriladi. O'zbekiston uchun, bizning fikrimizcha, bu raqamli transformatsiyani xususiylashtirish yakunlanguniga qadar kechiktirmaslik kerakligini anglatadi: raqamli infratuzilmaga investitsiyalar mulkdor o'zgarishidan oldin boshlanishi lozim, zero ular bankning investor uchun jozibadorligini oshiradi, kelgusi integratsiya xarajatlarini pasaytiradi va xususiylashtirish natijasidan qat'i nazar operatsion yaxshilanishlar uchun baza yaratadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil bir qator barqaror xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. Birinchidan, O'zbekiston davlat banklari CAMEL tizimining barcha beshta o'lchovi bo'yicha tizimli ravishda pastroq samaradorlikni namoyish etmoqda, bu esa o'tish davridan keyingi iqtisodiyotlarda davlat banklari samaradorligining nisbatan pastligi to'g'risidagi xalqaro ilmiy adabiyotlar xulosalariga mos keladi. Ikkinchidan, muammoli kreditlar (NPL) muammosining real ko'lami rasmiy ma'lumotlardan sezilarli darajada yuqori bo'lib, bu ipoteka-bank misoli orqali ham tasdiqlanadi. Uchinchidan, raqamlashtirish jarayoni uni faol amalga oshirayotgan davlat banklari hamda an'anaviy filiallar modelini saqlab qolayotgan banklar o'rtasidagi samaradorlik tafovutini yanada kuchaytirmoqda. To'rtinchidan, xalqaro sherikliklar (OTP Bank, Asakabankdagi YeTTB) bir vaqtning o'zida ham shaffoflikni oshirish, ham operatsion standartlarni import qilishning samarali mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu xulosalarga tayangan holda, biz quyidagi tavsiyalarni shakllantiramiz:

1. Banklarning raqamli transformatsiya dasturi xususiylashtirish bitimlaridan keyin emas, balki ulardan oldin amalga oshirilishi yoki ushbu bitimlar bilan parallel ravishda kechishi lozim. Bu bankning strategik investorlar uchun jozibadorligini oshiradi va bitimdan keyingi integratsiya xarajatlarini kamaytiradi.

2. Barcha tizim yaratuvchi banklar uchun MHXS (Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari) bo'yicha majburiy ommaviy hisobot — jumladan, xususiylashtirishgacha bo'lgan davrda ham — aktivlar sifatini ishonchli baholash va muammoli kreditlarning (NPL) yashirin to'planishining oldini olishning zaruriy shartidir.

3. Davlat banklarida algoritmik kredit skoringining joriy etilishini nafaqat samaradorlikni oshirish vositasi, balki kreditlash jarayoniga ma'muriy aralashuvdan institutsional himoyalani mexanizmi sifatida ham ko'rib chiqish lozim.

4. Xususiylashtirish yakunlanguniga qadar bunday investitsiyalarga nisbatan tijoriy talabning cheklanganligini hisobga olgan holda, davlat banklarining raqamli transformatsiyasini YeTTB, IFC (Xalqaro moliya korporatsiyasi) va boshqa xalqaro moliya institutlari vositalari orqali moliyalashtirish qisqa muddatli istiqbolda eng amaliy variant bo'lib ko'rinadi.

5. Markaziy bank muayyan bir bankning mulkchilik shaklidan qat'i nazar, butun tarmoq bo'yicha raqamli transformatsiyaga tizimli rag'bat yaratish maqsadida minimal raqamli standartlarni (mobil tranzaksiyalar ulushi, jarayonlarni avtomatlashtirish darajasi) litsenziya talablari sifatida belgilashi lozim.

Bizning fikrimizcha, kelgusi tadqiqotlar texnik va samaradorlikning aniq baholarini olish uchun individual bank ma'lumotlariga asoslangan to'liq DEA (ma'lumotlar qobig'i tahlili) tadqiqotini o'tkazishga, Ipoteka-bankning xususiylashtirishdan keyingi 3–5 yillik dinamikasini tahlil qilishga hamda bankning raqamli yetukligi va xususiylashtirish bitimining muvaffaqiyatli yakunlanishi ehtimoli o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishga qaratilishi lozim. Ushbu so'nggi yo'nalish alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi: agar raqamli yetuklik bankning strategik investor uchun jozibadorligi bilan ijobiy bog'liqlikda bo'lsa, bu xususiylashtirish oldidan raqamli transformatsiyaga davlat tomonidan investitsiyalarni kiritish borasida yetarli ilmiy-amaliy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4811025>

2. Banna, H., & Alam, M. R. (2021). Impact of digital financial inclusion on ASEAN banking stability: Implications for the post-Covid-19 era. *Studies in Economics and Finance*, 38(2), 504–523.

3. Barth, J. R., Caprio, G., & Levine, R. (2004). Bank regulation and supervision: What works best? *Journal of Financial Intermediation*, 13(2), 205–248.

4. Berger, A. N. (2003). The economic effects of technological progress: Evidence from the banking industry. *Journal of Money, Credit and Banking*, 35(2), 141–176.

5. Bonin, J. P., Hasan, I., & Wachtel, P. (2005). Bank performance, efficiency and ownership in transition countries. *Journal of Banking & Finance*, 29(1), 31–53.

6. Buchak, G., Matvos, G., Piskorski, T., & Seru, A. (2018). Fintech, regulatory arbitrage, and the rise of shadow banks. *Journal of Financial Economics*, 130(3), 453–483.

7. Charnes, A., Cooper, W. W., & Rhodes, E. (1978). Measuring the efficiency of decision making units. *European Journal of Operational Research*, 2(6), 429–444.

8. Fries, S., & Taci, A. (2005). Cost efficiency of banks in transition: Evidence from 289 banks in 15 post-communist countries. *Journal of Banking & Finance*, 29(1), 55–81.

9. Ikromov, S., & Alimova, M. (2024). Modernization and transformation of Uzbekistan's banking sector. *European Journal of Management, Economics and Business*, 1(3), 238–251.

10. Kornai, J. (1986). The soft budget constraint. *Kyklos*, 39(1), 3–30.



11. La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., & Shleifer, A. (2002). Government ownership of banks. *The Journal of Finance*, 57(1), 265–301.
12. Leibenstein, H. (1966). Allocative efficiency vs. X-efficiency. *The American Economic Review*, 56(3), 392–415.
13. McKinsey & Company. (2024). *Global Banking Annual Review 2024*. McKinsey & Company.
14. International Monetary Fund. (2025). Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program — Financial System Stability Assessment. IMF Country Report. Washington, DC: International Monetary Fund.
15. World Bank. (2025). Uzbekistan: Financial Sector Assessment. Washington, DC: World Bank.
16. World Bank. (2024). *World Development Indicators*. Washington, DC: World Bank.
17. Daryo.uz. (2024). Transformation of state banks in Uzbekistan: The need for a reset. Internet nashri materiali.
18. Kun.uz. (2026). Uzbekistan plans to privatize five state-owned banks by 2030. Internet nashri materiali.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>